

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI.

*Oydin Boymatova Gulmurodovna  
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 31-maktab  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, bu jarayonda, fanlar o'rtasidagi integratsiya holati, innovatsion metodlarni yaratishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada, "Reklama", "Kamalak jilosi", "Juft barmoqchalar", innovatsioin "Krassvord" metodlari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, metod, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, pedagogik yangilik, texnologiya, axborot texnologiyalari, integratsiya, Microsoft Excel dasturi.

"Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir." A.Avloniy

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o'qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo'llanilishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik yangilik - pedagogik faoliyatda ilgari ta'lif jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lif va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'lifning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'lifda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lif samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv

jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz."Reklama" metodi, asosan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materiallarni beradi, ularda "Reklama qiling!" birikmasi yozilganligi asosiy qoidadir.O'quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos sifatlar, xatti-harakatlar, asardan parchalar, rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, mazkur metoddan sinfdan tashqari o'qish darslari uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, boshqa o'quvchilarga o'qish uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. "Reklama" metodining afzalligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, jamoa oldida nutq so'zlash, o'z fikrini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi;
- dars jarayonining mazmunli tashkil qilinishiga erishiladi, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ularda kitobga bo'lgan hurmat shakllanadi, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, sog'lom raqobat muhiti paydo bo'ladi, o'zgalar fikrini hurmat qilish, ularni diqqat bilan tinglash, o'z diqqatini jamlash va fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

"Juft barmoqchalar" metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchining estetik didi shakllanadi, ijodiy fikrlashi ortadi, badiiy san'at va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi oshadi;
- o'quvchining qo'l matorikalari rivojlangan holda uning intelektual fikrlash qobiliyati shakllanadi;
- o'qituvchi jamoasini darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faollikka chorlash bilan bir qatorda mavzuni qay darajada tushunishganligini bilib oladi;
- o'quvchida ona tili fani bilan bir qatorda matematika, rasm va texnologiya faniga bo'lgan qiziqish ortadi. Chunki, o'quvchi "Juft barmoqchalar" ni yasash jarayonida rasmi chizadi, kesadi va hisob-kitob qilib barmoqlarida tasvirlaydi;

"Kamalak jilosi" metodini boshlang'ich sinflar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o'qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so'zlarni turkumlarga ajratishda qo'g'irchoq, mashina, kuldi, yig'ladi, sariq, katta, kichik, to'qqiz kabi so'zlarni turkumlarga ajratish va ot so'z turkumiga doir so'zlarni ko'k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so'z turkumidagi so'zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo'llash mumkin. Ya'ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo'lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo'la oladi.

"Kamalak jilosi" metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchi ranglar orqali so'zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o'quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo'ladi, ularda atrof-muhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnlilik va topqirlik qobiliyatları rivojlanadi.
- "Krossvord" metodi avvaldan qo'llanilib kelinayotgan metodlardan biri bo'lib, uni har bir sinfning far bir darsligida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositasi bo'lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Ammo, kompyuterning Microsoft Excell dasturi orqali tayyorlangan krasswordlar avvalgilariga qaraganda, samaraliroq natija berishini ko'rish mumkin. To'g'ri, Microsoft Excell dasturi biroz murakkab hamda formulalar asosida ishga tushiriladi, biroq, o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasidagi bilimlarni egallagan bo'lishlari davr talabidir.
- Innovatsoin krasswordlardan boshlang'ich ta'limning har bir bosqichida, shuningdek, yuqori sinflar dars jarayonlarida ham foydalanish mumkin. Microsoft Excell dasturida tayyorlangan krasswordni bajarishdan oldin o'quvchilarni krasswordni bajarishga

undovchi fikrlarni keltirish va bu orqali ularning qiziqishlarini yanada oshirish mumkin.

Krasswordni to'ldirishdan oldingi holat - Innovatsion krasswordni yechish jarayonida, o'quvchilar xato javob bersalar "smayl"imiz xafa bo'lish shakliga o'tadi, agar to'g'ri javob bersalar "smayHarning kulayotganligini ko'rish mumkin. Krasswordning afzalligi shundaki, o'quvchilar tomonidan belgilangan javoblarning to'g'riliqini tekshirish o'qituvchi tomonidan emas, kompyuter dasturi tomonidan aniqlanadi va ekranda paydo bo'ladi. Bu o'quvchilarni baholashda o'qituvchi imkoniyatining oshirilishi va vaqt tejamkorligiga erishilishini ta'minlaydi. Yakunda barcha javoblar to'g'ri va aniq bo'lsa, o'quvchilarga nisbatan maqtov so'zlarini ekranda ko'rishimiz mumkin.

"Microsoft Excell dasturida yaratilgan innovatsion "Krossvord" metodi orqali o'quvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchilarda bajarilayotgan krassword mavzusida oid bilimlar bilan birga "Informatika" fani haqidagi bilimlar ham shakllanadi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan xabardor bo'ladi; o'quvchilarda texnologiyalarga nisbatan qiziqish, ulardan foydalanish keng eshtiyoqi shakllanadi, shuningdek, darslarda axborot
- texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini yuksaltiradi, dars muhitining yaxshilanishini ta'minlaydi;
- o'quvchilar tomonidan belgilangan javoblarning to'g'riliqini tekshirish o'qituvchi tomonidan emas, kompyuter dasturi tomonidan aniqlanadi va ekranda paydo bo'ladi. Bu o'quvchilarni baholashda o'qituvchi imkoniyatining oshirilishi va vaqt tejamkorligiga erishilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. - T., 2008
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T., 2001
3. Azizzoxjayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T., 2002.